



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 21-noyabr

№ 2068

Ayrim sudyalarni boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan lavozimidan ozod etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 79-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq:

Mirzaxakimov Sherzod Turdaliyevich – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-noyabrdagi F-65-son farmoyishiga asosan Farg'ona viloyat ma'muriy sudining raisi lavozimiga tayinlanganligi munosabati bilan Farg'ona viloyat ma'muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Yusupov Akram Abdivaxidovich – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-noyabrdagi F-66-son farmoyishiga asosan Toshkent shahar ma'muriy sudi raisining o'rinbosari lavozimiga tayinlanganligi munosabati bilan Toshkent shahar ma'muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Yusupov Nizom Xasanovich – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-noyabrdagi F-63-son farmoyishiga asosan Andijon viloyat sudi raisining o'rinbosari – iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati raisi lavozimiga tayinlanganligi munosabati bilan Toshkent viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo'yicha sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Abduqodirov Sherzod Yoqubjonovich – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-noyabrdagi PF-226-son Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining rektori lavozimiga tayinlanganligi munosabati bilan Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Bo'ka tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov